SAMARQAND VILOYATI JOMBOY TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 18-mart | 56-7-94-Q/25 | Jomboy tumani hokimligi

Jomboy tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 27-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomning 39-bandiga asosan tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish jarayonida umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni belgilash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (J.Radjabov), tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Z.Yusupova) va tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

3. Belgilansinki, tumandagi umumta’lim muassasalar rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida umumta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul hisoblanadi.

4. O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (U.Mamatov), tuman yoshlar ishlari bo‘limi (E.Xotamov) va barcha mahalla fuqarolar yig‘ini raislariga maktab yoshidagi bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etish jarayonida tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi hamda umumta’lim muassasalariga amaliy yordam berish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror “Jomboy tongi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2024-yil 29-avgustdagi 295-7-94-Q/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari J.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **NAZAROV XURSHID.ARIPOVICH**

Jomboy tumani hokimining
2025-yil 18-martdagi
56-7-94-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Jomboy tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)
RO‘YXATI

№	Ta’lim muasasasi nomi	Ta’lim muasasasi manzili	7-17 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilarni qabul qilish uchun belgilangan mikrohudud
1	1-maktab	Polvonariq MFY, Turkman qishlog‘i 63-uy	Polvonariq MFYga qarashli Turkman, Beshkal, Dovchorariq, Churqindi qishloqlari
2	2-maktab	Qo‘lbosti MFY, Xo‘jaobod qishlog‘i	Qo‘lbosti MFYga qarashli Jo‘mlik, Xo‘jaqishloq, Tegirmonboshi, Tepaqishloq, Yangiqishloq, Qulqishloq, Xo‘jabobod qishloqlari hamda Navbahor qishlog‘ining ayrim hududlari
3	3-maktab	Kattaqishloq MFY, Qul qishlog‘i	Kattaqishloq MFYga qarashli Qulqishloq, Gulqishloq, Tegirmon, Shirinkent qishloqlari
4	4-maktab	To‘qqizboy MFY, To‘qqizboy qishlog‘i	To‘qqizboy MFYga qarashli To‘qqizboy, Baqalchoq, Kunjak-Qorakessak, Qorakessak qishloqlari hamda Katta Yo‘g‘ontepa qishlog‘ida joylashgan “Katta Yo‘g‘ontepa” qabristoni hududigacha
5	5-maktab	Juriyat MFY, Juriyat qishlog‘i	Juriyat MFYga qarashli Juriyat qishlog‘i
6	6-maktab	Naymantepa MFY, Naymantepa qishlog‘i	Naymantepa MFYga qarashli Naymantepa, Juriyat MFYga qarashli Kichik Yo‘g‘ontepa qishloqlari hamda To‘qqizboy MFYga qarashli Katta Yo‘g‘ontepa qishlog‘ida joylashgan “Katta Yo‘g‘ontepa” qabristoni hududigacha

7	7-maktab	Tut MFY, Tut qishlog‘i	Tut MFYga qarashli Tut va Chuvulloq qishloqlari
8	8-maktab	No‘sh MFY, No‘sh qishlog‘i	No‘sh MFYga qarashli No‘sh, Ximchi qishloqlari
9	9-maktab	Qo‘ng‘irot MFY, Qo‘ng‘irot qishlog‘i	Qo‘ng‘irot MFYga qarashli Qo‘ng‘irot va Qoraqosmoq qishloqlari hamda G‘azira MFYga qarashli Navro‘ztepa qishlog‘ining ayrim hududlari
10	10-maktab	Sariqipchoq MFY, Sariqipchoq qishlog‘i	Sariqipchoq MFYga qarashli Sariqipchoq, Yettiurug‘ va So‘xmon qishloqlari
11	11-maktab	G‘azira MFY, G‘azira qishlog‘i	G‘azira MFY G‘azira, G‘arovtepa, Navro‘ztepa va Shakarqishloq qishloqlari
12	12-maktab	Tut MFY, Pardi qishlog‘i	Tut MFYga qarashli Pardi, Zarmak va Chuqurqishloq qishloqlari
13	13-maktab	Qo‘ng‘irot MFY, Nayman qishlog‘i	Qo‘ng‘irot MFYga qarashli Nayman, Xitoybola, Baqalchoq, Yuqori metan va Pastki metan qishloqlari
14	14-maktab	Qang‘li MFY, Qang‘li qishlog‘i	Qang‘li MFYga qarashli Qang‘li qishlog‘i hamda Taldirazoq MFYga qarashli Mirzaariq qishlog‘ining ayrim hududlari *(yuqori sinf o‘quvchilari)*
15	15-maktab	Xitoypoyon MFY, Xitoy qishlog‘i	Xitoypoyon MFYga qarashli Xitoy qishlog‘i
16	16-maktab	Ko‘kgumbaz MFY, Ko‘kgumbaz qishlog‘i	Ko‘kgumbaz MFYga qarashli Ko‘kgumbaz, Yallama, Pirdan, Xo‘ja va Uyas qishloqlari hamda Chimqo‘rg‘on, Mang‘it qishloqlarining ayrim hududlari
17	17-maktab	Shirinkent MFY, Elatan qishlog‘i	Shirinkent MFYga qarashli Elaton va Qorakent qishloqlari
18	18-maktab	Dehqonobod MFY, Jomboy ko‘chasi 3-uy	Dehqonobod MFYga qarashli Jobi qishlog‘i, Dehqonobod MFYga qarashli Nuroniy, Nafosat, Bog‘, Binokor, Jomboy, Chamanzor, Maktab, Do‘stlik, Adolat, Dehqonobod, Navoiy, Navro‘z, Birlik, Istiqlol, Shifokor, Ma’rifat, O.Maxmudov, Yoshlik ko‘chalaridagi barcha xonadonlar, Nazar MFYga qarashli Jobi-2 qishlog‘i hamda

			So‘xmon MFYga qarashli Xitoy, O‘ray, Bo‘rloq qishloqlari
19	19-maktab	Xolvoyi MFY, Xolvoyi qishlog‘i	Xolvoyi MFYga qarashli Xolvoyi qishlog‘i hamda Samarqand shahar Shirin qo‘rg‘onining ayrim hududlari
20	20-maktab	Sarichashma MFY, Sarichashma qishlog‘i 480-uy	Sarichashma MFYga qarashli Sarichashma qishlog‘i hamda Kattaqishloq MFYga qarashli Uzunovul massivi
21	21-maktab	Xolvoyi MFY, Chalaqo‘rg‘on qishlog‘i	Xolvoyi MFYga qarashli Chalaqo‘rg‘on qishlog‘i
22	22-maktab	Kattaqishloq MFY, Kattaqishloq qishlog‘i	Kattaqishloq MFYga qarashli Kattaqishloq, Qoraqishloq, Ravot qishloqlari hamda Uzunovul, Shayman qishloqlarining ayrim hududlari
23	23-maktab	Toshkent MFY, Oq-ariq ko‘chasi 4-uy	Toshkent MFYga qarashli Toshkent, Muzbuloq, Navro‘z, O‘rtabo‘z, Do‘stlik, Yoshlik, Oq ariq, Furqat va Hamid Olimjon ko‘chalari, Guliston MFY ga qarashli Zebuniso, Archazor, Paxtakor, O.Maxmudov, Galakapa va Abdulla Qodiriy ko‘chalari, Zarafshon MFYga qarashli O‘rtabo‘z 1, O‘rtabo‘z 2, O‘rtabo‘z 3 qishloqlari, Xashdala2 qishloq, Xashdala1 qishlog‘idan 1-51 xonadonlar
24	24-maktab	Zarafshon MFY, Galakapa qishlog‘i	24-maktabga Gala kapa 1 qishlog‘idan 1-175 gacha uylar, Xashdala 1 qishlog‘idan 121-161 uylar, Gala kapa2 41-120 uylar va Mirza orti qishlog‘i
25	25-maktab	Nayman MFY, Nayman qishlog‘i	Nayman MFYga qarashli Nayman, So‘xmon, Qiyot, O‘ray, Boqi, Beshkapa, Do‘rmon qishloqlari
26	26-maktab	Saroy MFY, Saroy qishlog‘i	Saroy MFYga qarashli Saroy-1, Saroy-2, Saroy-3, Gardan va So‘filar qishloqlari hamda O‘ray MFYga qarashli O‘ray-1 va O‘ray-2 qishloqlarining ayrim hududlari
27	27-maktab	Qo‘rg‘onsolomon MFY, Qo‘rg‘onsolomon qishlog‘i	Qo‘rg‘onsalomon MFYga qarashli Qo‘rg‘onsalomon, Madaniyat, Oltiog‘ayin, Sorilar qishloqlari hamda Ko‘pchabiy, G‘arg‘oli qishloqlarining ayrim hududlari
28	28-maktab	Eski Jomboy MFY,	Eski Jomboy MFYga qarashli Eski Jomboy markazi, Bekat,Okkovun,

		Eski Jomboy qishlog‘i	Temirchi, Beshsayit, Jonxo‘roz, Beshkal , Yangi Hayot, Yangi Hayot-1, Yangi Hayot-2, qishloqlari hamda Nayman MFYga qarashli Katta O‘ray, Kichkina O‘ray qishlog‘ining ayrim hududlari(Nayman MFYga qarashli Kichkina O‘ray, Oqqovun, Temirchi, Yangi Hayot, Yangi Hayot-1, Yangi Hayot-2 qishloqlari
29	29-maktab	Quduqli MFY, Quduqli qishlog‘i	Quduqli MFYga qarashli Quduqli, Yomonqo‘rg‘on, Qatag‘on qishloqlari hamda Kulchabiy qishloqlarining ayrim hududlari
30	30-maktab	Olmazor MFY, Yetti o‘g‘il qishlog‘i	Olmazor MFYga qarashli Qo‘shtepa, Uyuruvchi, Yettiurug‘ qishloqlari hamda Olmazor MFYga qarashli Olmazor-2, Quduqli MFYga qarashli Yertosh qishloqlarining ayrim hududlari
31	31-maktab	Nazar MFY, Nazar qishlog‘i	Nazar MFyga qarashli Nazar qishlog‘i, A.Qurbonov mahallasining Gazarma qishlog‘i.
32	32-maktab	So‘xmon MFY, So‘xmon qishlog‘i	So‘xmon MFYga qarashli So‘xmon-1, So‘xmon-2 va Qurqozon qishloqlari
33	33-maktab	Nayman MFY, Qorariq qishlog‘i	Nayman MFYga qarashli Qoraariq, Kattaso‘xmon, Katta Qoraariq, O‘roqli qishloqlari
34	34-maktab	Naymantepa MFY, Qozon qishlog‘i	Naymantepa MFYga qarashli Qozon, Turkman qishloqlari hamda Sherqo‘rg‘on MFYga qarashli Guzay qishlog‘i
35	35-maktab	Ko‘kgumbaz MFY, Boybog‘ish qishlog‘i	Ko‘kgumbaz MFYga qarashli Boybog‘ish qishlog‘i hamda Chimqo‘rg‘on qishlog‘ining ayrim hududlari, Xitoypoyon mahallasi Buloqboshi qishlog‘ining 533-540 xonadonlar, Shirinkent mahallasining Chorvador bo‘lim qishlog‘idagi 15 ta xonadon.
36	36-maktab	Olmazor MFY, Olmazor qishlog‘i	Olmazor MFYga qarashli Olmazor 1 va Yerteshar qishloqlari hamda Olmazor 2 hududlari
37	37-maktab	Shirinkent MFY, Chorvador qishlog‘i	Shirinkent MFYga qarashli Yangihayot markazi, Yangihayot va bo‘lim qishloqlari hamda Qorakent va Karangat qishloqlarining ayrim hududlari
38	38-maktab	Qo‘lbosti MFY,	Qo‘lbosti MFYga qarashli Qo‘lbosti, Qozoqovul va Tuyoqli

		Qo‘lbosti qishlog‘i	qishloqlari hamda Navbahor qishlog‘ining ayrim hududlari
39	39-maktab	Nogahon MFY, Xurmi qishlog‘i	Nogohon MFYga qarashli Xurmi qishlog‘i
40	40-maktab	Samarqand MFY, Shukur Burxonov ko‘chasi 10-uy	Samarqand MFYga qarashli Ulug‘bek 1-, 2-, 3-, 4- berk ko‘chalari, Samarqand, O‘zbekiston, Chehra, Madaniyat, Istiqlol, Yangihayot, Mehnatobod, Moylichuqur (kotejlar ham), Xolvoyi, So‘g‘diyona, Turon, Afrosiyob, Nurobod, Nurafshon, Ibn Sino va Shukur Burxonov ko‘chalari, shuningdek, tuman tibbiyot birlashmasi va "Shayman" dehqon bozori o‘rtalig‘ida joylashgan barcha uylar, A.Qurbonov MFYga qarashli Beruniy, Beruniy 1-, 2-, 3-, 4-berk ko‘chalari.
41	41-maktab	Olmazor MFY, Qarapchi qishlog‘i	Olmazor MFYga qarashli Qarapchi qishlog‘i
42	42-maktab	Shirinkent MFY, Shirinkent qishlog‘i	Shirinkent MFYga qarashli Shirinkent qishlog‘i hamda Galabotir, Elaton qishloqlarining ayrim hududlari
43	43-maktab	Taldirazzoq MFY, Oqbosh qishlog‘i	Taldirazoq MFYga qarashli Taldirazoq, Oqbosh, Qirqlar qishloqlari hamda Mirzaqang‘li qishlog‘ining ayrim hududlari *(boshlang‘ich sinf o‘quvchilari)*
44	44-maktab	Sarichashma MFY, Mang‘it qishlog‘i	Sarichashma MFYga qarashli Mang‘it, Saricha va Bobotepa qishloqlari
45	45-maktab	Saroy MFY, Qaxramon qishlog‘i	Saroy MFYga qarashli Ayg‘irtepa qishlog‘i, Qo‘rg‘onsalomon MFYga qarashli Qirq va Ayg‘irbuloq qishloqlari
46	46-maktab	Shodlik MFY, Xashdala ko‘chasi 26-uy	Shodlik MFYga qarashli Shodlik, Tinchlik, Haqiqat, Hashdala, Siddiqiy, Tong yulduzi ko‘chalari, A.Navoiy MFYga qarashli A.Navoiy, Hashdala, Haqiqat, Muqimiy, X.Vali, Baxoriston ko‘chalari, A.Qurbonov MFYga qarashli Baxoriston, G‘.G‘ulom, Mirzaariq, A.Qurbonov, Zarafshon, Saroy, Rabg‘uziy, Ko‘kgumbaz ko‘chalari, Nazar MFYga qarashli Kichik Nazar qishlog‘i
47	47-maktab	Qoramo‘yin MFY,	Qoramo‘yin MFYga qarashli Qorasuv-1, Qorasuv-2 Qorasuv-3

		Qorasuv qishlog‘i	qishlog‘idagi 1-31 xonadonlar
48	48-maktab	Qoramo‘yin MFY, Qoramo‘yin qishlog‘i	Qo‘ramo‘yin MFYga qarashli Qoramo‘yin-1, Qoramo‘yin-2, Qoramo‘yin-3 qishloqlari hamda Qorasuv-3 qishlog‘idagi 32-64 xonadonlar
49	49-maktab	Qoramo‘yin MFY, Oqqovun qishlog‘i	Qoramo‘yin MFYga qarashli Oqqovun 1, Oqqovun 2, Metan 1, Metan 2, Qoraki qishloqlari.
50	50-maktab	Beshbola MFY, Oqko‘prik qishlog‘i	Beshbola MFYga qarashli Oqko‘prik, Xon, Mingbuloq qishloqlari
51	51-maktab	Beshbola MFY, Beshbola qishlog‘i	Beshbola MFYga qarashli Beshbola va Bekbo‘ta qishloqlari hamda Qoramo‘yin MFYga qarashli Boytop qishlog‘ining 1-2-3-ko‘chalari
52	52-maktab	Qoramo‘yin MFY, Saboloq qishlog‘i	Qoramo‘yin MFYga qarashli Toshloq-Saboloq qishlog‘i.
53	53-maktab	Qo‘ng‘irot MFY, To‘tixolajon qishlog‘i	Qo‘ng‘irot MFYga qarashli To‘tixolajon qishlog‘i
54	54-maktab	Sherqo‘rg‘on MFY, Og‘ajon qishlog‘i	Sherqo‘rg‘on MFYga qarashli Sherqo‘rg‘on, Og‘ajon, O‘rtabozor qishloqlari va Nogohon MFYga qarashli Nogohon qishlog‘i
55	55-maktab	Nogahon MFY, Arpa qishlog‘i	Nogohon MFYga qarashli Arpa, Qo‘ziguzar, Dovchar qishloqlari
56	56-maktab	Guliston MFY, Galakapa ko‘chasi 45-uy	A.Navoiy MFYga qarashli Shayx Xudoydodi Vali, Navbahor, Fidokor, A.Navoiy, Bobur ko‘chalari, Guliston MFYga qarashli Islomobod, Galakapa, Lolazor, G‘alabaning qirq yilligi, Kamolot, Bo‘ston ko‘chalari, Zarafshon MFY ga qarashli Navro‘z 1-, 2-, 3-ko‘chalari hamda Hashdala 1 qishlog‘ining 51-120 xonadonlar, Galakapa 2 qishlog‘ining 1-40 xonadonlar

Izoh: *23- va 46-maktablarda rus sinfi tashkil etilishi munosabati bilan rus sinflarga qo‘shni hududlardar o‘quvchilar qabul qilinishi mumkin.*